



Received: November 14, 2025
Accepted: December 22, 2025
Available online: December 25, 2025

Ra'no Begmatova

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Toshkent, O'zbekiston

KOOPERATSIYANI TA'MINLASHDA TOLERANTLIK STRATEGIYASINING AHAMIYATI

(nemis va o'zbek muloqotlari jarayonida)

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada nemis tilida so'zlashuvchilar o'rtasidagi muloqotda hamkorlikka erishishda tolerantlik strategiyasining roli tahlil qilinadi. Maqolaning maqsadi – tolerantlik strategiyalarining muhim tarkibiy qismi sifatida siyosiy boadablikning madaniyatlararo muloqotga qanday ta'sir ko'rsatishini o'rganish va tahlil qilishdir. Maqolada muloqot jarayonida turli madaniy me'yorlarning farqlari qanday to'siqlarni yuzaga keltirishi mumkinligi ko'rib chiqiladi. Bu ayniqsa madaniyatlararo muloqot jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi, chunki madaniy kelib chiqishi jihatidan turli millatga mansub insonlarning milliy an'analari, ijtimoiy qadriyatlari va kommunikativ xatti-harakatlariga tayanadilar. Shuning uchun ham madaniy tafovutlarni hisobga olgan holda, samarali va konstruktiv muloqotni tashkil qilish uchun tolerantlik strategiyalarining o'rni beqiyosdir.

Tadqiqot doirasida kooperatsiya muloqotning tabiiy tarkibiy qismi sifatida qaraladi. Samarali muloqot uchun suhbatdoshlarning manfaatlarini hisobga olish va ularga hurmat bilan yondashish muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotning vazifalari qatoriga nemis va o'zbek tillaridagi muloqotlarda tolerantlik strategiyalarining qanday qo'llanilishini tahlil qilish, madaniyatlararo muloqotda siyosiy boadablikning rolini aniqlash, shuningdek, bu amaliyotning nemis va o'zbek tillarida so'zlashuvchi jamiyatlarda qanday qo'llanilishini o'rganish kiradi. Tadqiqot metodlari sifatida YouTube platformasida mavjud

Rano Begmatova

Associate Professor, Doctor of Philosophy in Philo-
logical Sciences (PhD)
Uzbekistan State World Languages University
Tashkent, Uzbekistan
E-mail: rano@rambler.ru
ORCID iD: 0009-0005-6182-3347

TOLERANCE AS A STRATEGY FOR ENSURING COOPERATION

(In German and Uzbek Communication
Processes)

ABSTRACT

This article provides a comprehensive analysis of the role of tolerance strategies in achieving cooperation in communication among German-speaking individuals. The main objective of the study is to examine and analyze the impact of political correctness as a crucial component of tolerance strategies on intercultural communication. The article explores in detail the differences in cultural norms and the potential barriers they may create in the communication process. This is especially important in intercultural communication, as people from different cultural backgrounds rely on their national traditions, social values, and communicative behavior. Therefore, the role of tolerance strategies in establishing effective and constructive dialogue is of paramount importance.

Within the framework of this study, cooperation is viewed as a natural component of communication. Successful communication requires taking into account the interests of interlocutors and treating them with respect. The research objectives include analyzing the use of tolerance strategies in dialogues in German and Uzbek, identifying the role of political correctness in intercultural communication, and examining how this practice is applied in German- and Uzbek-speaking communities. As research methods, a communicative, pragmatic, and synthesized analysis of dialogues available on the YouTube platform was conducted. This allowed the author to study various interaction

bo'lgan dialoglarning kommunikativ, pragmatik va sintezlangan tahlili amalga oshirilgan. Bu muallifga turli xil muloqot vaziyatlarini chuqur o'rganish va ularning qanday natijalarga olib kelishini tahlil qilish imkonini beradi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, siyosiy boadablik taktikasining qo'llanilishi muloqotda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ziddiyatlarni sezilarli darajada kamaytiradi. Qolaversa, adabiy jarayonda samarali hamkorlikni ta'minlaydi.

Ilmiy-amaliy ko'zatuvarimizdan kelib chiqib aytadigan bo'lsak, ayniqsa, nemis tilida so'zlashuvchi mamlakatlarda bu amaliyot keng qo'llanilishi aniqlandi. O'zbek tilida so'zlashuvchi muhitda siyosiy boadablik asosan rasmiy va siyosiy doiralarda uchrashining guvohi bo'ldik. Bu boradagi qiziqishlarning ortib borayotgani sabab madaniyatlararo muloqotni rivojlantirishda yangi ilmiy-ijodiy imkoniyatlar ochilmoqda. Shu ma'noda, mazkur tadqiqot xulosalari nemis tilida so'zlashuvchi auditoriya bilan ishlaydigan lingvistlar, diplomatlar va siyosatshunoslar uchun foydali bo'lishi mumkin.

Kalit so'zlar: nutqiy muloqot, nemisabon so'zlovchilar, kooperatsiya, tolerantlik, siyosiy boadablik, madaniyatlararo muloqot, gender-neytral so'zlar, diskriminatsion so'zlar, inklyuzivlik, pragmatik tahlil.

KIRISH

Lingvistik kooperatsiya mavzusi tilshunoslikda nutqiy muloqot jarayonini o'rganishda alohida ahamiyat kasb etadi. Tilshunoslikda lingvistik kooperatsiya xodisasini madaniyatlararo muloqotda o'zaro ta'sirni ta'minlaydigan asosiy strategiyalar (ijobiyat, tolerantlik, solidarlik, samimiylilik va ishonch, xushmuomalalik strategiyalari hamda kooperatsiyada konvensiya)ni aniqlash va tizimlashtirish orqali tahlil qilishning strategik yondashuvlaridan biri sanaladi. Kommunikativ strategiya va taktikalar ushbu jarayonning asosiy unsurlari hisoblanadi.

Tolerantlik – bu kooperatsiyani ta'minlashga xizmat qiluvchi, boshqa shaxsga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo'lish strategiyasi bo'lib, suhbatdoshning fikrlariga, qarashlariga va xatti-harakatlariga bag'rikenglik bilan yondashishni anglatadi [Axmanova, 1966; 367]. Bu strategiya insonlar o'rtasidagi o'zaro tushunishni mustahkamlaydi va nizolarning oldini olishga yordam beradi.

Ijtimoiy fanlarda tolerantlik tushunchasi boshqa shaxslarning dunyoqarashi, hayot tarzi, xulq-atvori va urf-odatlariga nisbatan sabr-bardoshli, chidamli bo'lishni izohlab kelsa-da, bu tushuncha loqaydlik yoki beparvolik ma'nosini kasb etmaydi, chunonchi tolerantlik boshqa insonlarning qarashlarini, hayot tarzini to'liq qabul qilish emas, balki ularga o'z dunyoqarashlaridan kelib chiqqan holda yashash huquqi-

scenarios in depth and analyze their outcomes.

The study results indicate that the use of political correctness significantly reduces the number of conflict situations in communication and, as a result, ensures effective cooperation. This practice is particularly widespread in German-speaking countries. In the Uzbek-speaking community, political correctness is mainly observed in official and political spheres; however, interest in such practices is growing. This opens up new prospects for the development of intercultural communication. The study's conclusions may be especially useful for linguists, diplomats, and political scientists working with a German-speaking audience.

Key words: verbal communication, native speakers of German language, cooperation, tolerance, political correctness, intercultural communication, gender-neutral words, discriminatory terms, inclusiveness, pragmatic analysis.

ni berish demakdir [Ter-Minasova, 2000; 132]. Madaniyatlararo aloqalarda boshqa madaniyatlarning urf-odatları, xulq-atvori va boshqa jihatlarining o'ziga xos xususiyatlarini e'tirof etish va ularga nisbatan tolerantlikni shakllantirish zarurdir [Guzikova, 2022; 87]. Zero, tolerantlik – o'z pozitsiyasining mustahkamligiga ishonch, o'z dunyoqarashini boshqalar bilan solishtirishdan cho'chimaslik va ma'naviy raqobatdan qochmaslik, turli g'oyalar va qarashlarga ochiqlik belgisidir [Larina, 2003; 14]. Madaniyatlararo muloqotda suhbatdoshning nutqidagi xatolarga ko'z yuma olish, zarur bo'lganda ularni tuzatish hamkorlik jarayonining silliq va uzluksiz davom etishini ta'minlovchi omillardan biridir [Namestnikova & Permyakova & Sadoxin, 2004; 189-190].

Kooperativ muloqot jarayonida tolerantlik strategiyalari muhim o'rin tutadi. Xususan, lingvistik tolerantlik muloqotda mojarolarni oldini olish, fikrlar almashinuvi jarayonida suhbatdoshning hissiy holatini hisobga olish va uning dunyoqarashini hurmat qilish bilan bog'liq [Lanskix & Agarkova 2012; 96]. Tolerantlik strategiyalarining qo'llanilishi nafaqat shaxslararo muloqotni samarali qiladi, balki madaniyatlararo muloqotda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu ma'noda yuqoridagi olimlarimiz nuqtai nazaridan qaraganda, ushbu tadqiqot madaniyatlararo muloqotda kooperatsiyaning lingvistik mexanizmlarini o'rganishga qaratilgan bo'lib, tolerantlik strategiyalarining kommunikativ jarayondagi o'rnini aniqlashga yo'naltirilgan. Xususan, ushbu maqolada nemis va o'zbek tillarida tolerantlikning muloqotdagi ifodalanish xususiyatlari, ularning ta'sirchanligini va samaradorligini tahlil qilish kabi masalalarni yoritishga harakat qildik.

Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, bugungi globallashtirish jarayonida madaniyatlararo aloqa tobora kengayib bormoqda. Bunday sharoitda kommunikativ kompetensiyaning oshirilishi, turli madaniy an'analar, muloqot tamoyillari va tolerantlik strategiyalarining o'zaro uyg'unlashuvi katta ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijalari esa lingvistik, sotsiolingvistik va pragmalingvistik sohalaridagi ilmiy izlanishlarga o'z hissasini qo'shishi mumkin.

TADQIQOT METODLARI

Mazkur tadqiqotda tahlil metodining turli ko'rinishlaridan keng foydalanildi. Xususan, ko'zatishlarimiz asosida empirik tahlil ishlari olib borilib kontekstdan ajratib olingan xolda ilmiy bilishni rivojlantirishga urunib ko'rildi. Chog'ishtirilayotgan tillarda madaniyatlararo muloqotda kooperatsiyaning ta'minlaydigan leksik-semantik vositalarning lingvomadaniyatga bog'liq holda o'zgarishi hamda ularning kommunikatsiya jarayonidagi rolini tizimli tahlil metodi orqali lingvistik kooperatsiyaning funksional mexanizmi ochib berildi.

Tilshunoslikda tolerantlik lingvokulturologik, sotsiolingvistik va kommunikativ kategoriya sifatida tadqiq etiladi. Lingvistik tolerantlik deganda shaxsning o'zidan farq qiladigan boshqa insonlar bilan muloqotda verbal va nonverbal nutq vositalarining majmuasidan foydalanishi tushuniladi. Shu nuqtai-nazardan tolerantlik samarali muloqotning asosidir [Ladegaard & Jenks, 2015; 12]. Tolerantlik insonning o'zini tutish paradigmasini shakllantirgani uchun regulativ vazifani bajaradi. Tolerantlikning

kommunikativ kategoriya sifatida tasniflanishi uning kognitiv, pragmatik va etik asoslarga tayanishini ko'rsatadi [Knapp, 2007; 546]. Kognitiv asos begonalik kategoriyasi, ya'ni o'zimizniki-begona qarama-qarshiligi va o'ziga xoslik tushunchalarini o'z ichiga olganligi bois kommunikant tomonidan o'z davri boshqa guruhlardan ajratiladi va chegaralanadi hamda jarayon biz, bizniki va siz, sizniki, ular, ularniki kabi olmoshlarning qo'llanilishi orqali amalga oshiriladi [Karasik & Flaksmann & Kuznetsova 2017; 26]. O'zini boshqalardan keskin va qo'pol tarzda ajratish muloqotda ziddiyatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Tolerantlikning pragmatik asosi suhbatdoshlarning muloqot jarayonidagi xatti-harakatlari va munosabatlarini ifodalaydi. Tolerantlikning etik asosi esa motivatsiyani anglatadi [Suray & Tashkinova & Lulu, 2019; 37].

Tolerantlikning lingvistik va kommunikativ jihatlarini uning jamiyatdagi muloqot jarayonlariga qanday ta'sir qilishini chuqur o'rganishni talab qiladi. Shu sababli, tadqiqotda kommunikativ, pragmatik va sintezlangan tahlil metodlaridan foydalanilgan. Kommunikativ tahlil yordamida suhbat ishtirokchilarining nutqiy xatti-harakatlari, dialogning rivojlanish dinamikasi va muloqotning umumiy tuzilishi o'rganiladi. Bu usul muloqot jarayonida tolerantlik strategiyalarining qanday shakllanishi va qanday natijalarga olib kelishini aniqlashga yordam beradi.

Pragmatik tahlil esa suhbat jarayonida ishlatilgan lingvistik birliklarning muloqotdagi funksiyasini o'rganishga qaratilgan. Unda tolerantlikning qanday lingvistik vositalar orqali ifodalanishi, suhbatdoshlarning nutq strategiyalari va ularning pragmatik maqsadlari aniqlanadi. Xususan, siyosiy bo'adablik (politkorrektlik) doirasida ishlatiladigan neytral yoki inklyuziv leksik vositalarning kommunikativ samaradorlikka ta'siri tahlil qilinadi.

Shuningdek, tadqiqot sintezlangan tahlil metodiga asoslanib olib borilgan. Bu usul turli xil metodlarni birlashtirish orqali tolerantlik strategiyalarining muloqotdagi ahamiyatini har tomonlama yoritishga imkon beradi. Jumladan, ishda YouTube platformasida mavjud bo'lgan nemis va o'zbek tillaridagi dialoglarning lingvistik xususiyatlari va ulardagi tolerantlik unsurlari tahlil qilindi, uning lingvistik va pragmatik jihatlarini o'rtasidagi bog'liqlik aniqlandi. Tadqiqot natijasi shuni ko'rsatdiki, muloqot jarayonida tolerantlik strategiyalaridan foydalanish suhbatdoshlar o'rtasidagi ziddiyatlarni kamaytirib, samarali va uyg'un muloqotni ta'minlashi aniqlandi.

NATIJALAR

Nemis tilida kooperatsiyani ta'minlovchi tolerantlik strategiyasining taktikalari 3.3-chizmada ko'rsatilgan. Ushbu chizma tolerantlik strategiyasining ikki asosiy taktikasini, ya'ni xatoga ko'z yumish va mavqeini ko'tarish taktikalarini aks ettiradi (Qarang: 1-chizma).

1-chizma

Kooperatsiyani ta'minlovchi tolerantlik strategiyasining taktikalari

1-chizmada ko'rsatilgan taktikalar tolerantlik strategiyasining muhim qismlaridir. Xatoga ko'z yumish taktikasi suhbatdoshning xatolariga e'tibor bermaslikni va ularni kechirish, suhbatdoshga hurmat bilan munosabatda bo'lish va uni qo'llab-quvvatlash orqali kooperatsiyani mustahkamlaydi.

Xatoga ko'z yumish taktikasi suhbat davomida suhbatdoshning nutqiy yoki mantiqiy xatolarini sezmaslik, ularni tanqid qilishdan tiyilish hamda suhbat davomida insoniy hurmat va qo'llab-quvvatlash tamoyillariga asoslangan holda harakat qilishni nazarda tutadi. Bu taktika ayniqsa madaniyatlararo muloqotda muhim ahamiyat kasb etadi, chunki turli madaniy muhitlarda nutqiy xatolar va noto'g'ri talqinlar tez-tez uchraydi. Shunday vaziyatlarda xatolarga e'tibor bermaslik va suhbatdoshning fikriga nisbatan bag'rikenglik ko'rsatish muloqotning ijobiy rivojlanishiga xizmat qiladi.

Mavqeini ko'tarish taktikasi esa suhbatdoshning qadr-qimmatini oshirish, uning fikrlarini ijobiy baholash va unga nisbatan hurmat ko'rsatish orqali namoyon bo'ladi. Ushbu taktika muloqot ishtirokchilarining o'zini qulay his qilishiga, o'z fikrlarini ochiq-oydin ifoda etishiga va konstruktiv suhbat olib borishiga yordam beradi. Ayniqsa, rasmiy va ishbilarmonlik muhitida bu taktika ko'p qo'llanilib, samarali muloqotni ta'minlashga xizmat qiladi.

Demak natijalar shuni ko'rsatdiki, ushbu tolerantlik strategiyalari nemis tilida so'zlashuvchi muhitda keng qo'llanilib, suhbatdoshlar o'rtasidagi ishonch va o'zaro tushunishni mustahkamlashga yordam beradi. Xususan, muloqot jarayonida xatoga ko'z yumish va mavqeini ko'tarish taktikalarining qo'llanilishi ziddiyatlarning oldini olishga, o'zaro hamkorlik madaniyatini rag'batlantirishga va suhbatdoshlar o'rtasidagi ijobiy munosabatlarni shakllantirishga katta hissa qo'shadi.

MUNOZARA

Siyosiy boadablik deganda ba'zi bir ijtimoiy guruhlar tomonidan o'zlari uchun haqoratli deb o'lingan so'z va iboralardan foydalanishdan qochish tushuniladi. Shuningdek, bu bir guruhni ikkinchisidan ustunligini anglatadigan jummalarni nutqda qo'llashdan tiyilishdir. Turli millatga mansub suhbatdoshlar bilan muvaffaqiyatli muloqotni tashkil etish uchun ham siyosiy boadablik zarurdir. O'z mazmuniga ko'ra, ushbu tushuncha nutqda nizo keltirmaydigan leksikani to'g'ri qo'llashni nazarda tutadi va ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi tenglikni ta'minlashga xizmat qiladi [Vorobes, 2012; 58]. Bundan tashqari, siyosiy boadablik jamiyatda diskriminatsiyaga yo'l qo'ymaslik, ijtimoiy kelib chiqishidan qat'i nazar, har bir shaxsni hurmat qilish tamoyillariga aso-

slanadi.

Siyosiy boadablik bu millatlar-, madaniyatlar- va etnik guruhlararo qarama-qarshilik va ziddiyatlarni bartaraf etishga qaratilgan g'oyaviy va ruhiy hodisadir (ustanovka, dastur, ko'rsatma, yo'l-yo'riq). Uning asosiy maqsadi – ijtimoiy adolatni mustahkamlash, barcha qatlamlar va guruhlar o'rtasida teng huquqlilik va o'zaro hurmatni ta'minlashdir. Siyosiy boadablik madaniyatlararo lingvomadaniy o'ziga xosligini saqlashga imkon beradigan maxsus, ko'p darajali lingvistik vositalarni tanlashda lingvistik voqelanishga ega bo'ladi [Meyer, 2007; 168]. Shu sababli, siyosiy boadablik nafaqat lingvistik hodisa, balki ijtimoiy va madaniy jarayonlarni o'z ichiga olgan muhim omildir.

Siyosiy boadablikni qo'llash uchun ehtiyoj sotsial tenglik uchun kurash bo'layotgan mamlakatlarda keng uchrashi kuzatiladi. Xususan, Germaniya davlatida ijtimoiy va siyosiy darajada gender-neytral bo'lgan so'zlarni ishlatish, diskriminatsion terminlardan qochish kabi hodisalar kuzatilmoqda. Bundan tashqari, ta'lim sohasida ham inklyuziv tilni targ'ib qilish, matbuotda neytral va adolatli yondashuvga rioya qilish kabi tendensiyalar sezilarli darajada namoyon bo'lmoqda.

Boshqa davlatlarda ham siyosiy boadablikning qo'llanilishi turlicha kechmoqda. Ayrim jamiyatlarda u faqat rasmiy doiralarda qo'llanilsa, boshqalarida kundalik hayotda ham o'z ifodasini topmoqda. Shu sababli, siyosiy boadablikning qo'llanilish doirasini kengaytirish va uning samaradorligini oshirish zamonaviy jamiyatning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Quyida misollar keltiriladi:

Misol-1. Gender-neytral so'zlarni ishlatish.

– Anna: *Guten Morgen zusammen! Hat jemand von euch den neuen Bericht der Geschäftsführung gelesen?*

– Max: *Guten Morgen, Anna. Ja, ich habe ihn gelesen. Die Geschäftsführerin hat sehr interessante Punkte angesprochen.*

– Anna: *Genau, und ich finde es gut, dass sie die Mitarbeitenden direkt angesprochen hat.* [<https://www.br.de/extra/respekt/political-correctness-diskriminierung-rassismus-100.html>]

Kommunikativ tahlil:

1. Maqsad. Bu dialogda asosiy maqsad ish jarayonidagi yangiliklarni muhokama qilish, ammo bu jarayonda gender-neytral tildan foydalanish orqali inklyuziv muhitni yaratish ham ko'zlangan.

2. Aloqa turi. Hamkasblar o'rtasidagi rasmiy-do'stona muloqot. Bunda "Geschäftsführung" (rahbariyat) va "Mitarbeitenden" (xodimlar) kabi gender-neytral atamalardan foydalanilgan.

3. Baho. Suhbatdoshlar gender-neytral tilni qo'llash orqali ijobiy munosabat bildirmoqdalar. Anna "Mitarbeitenden" so'zini ishlatib, barcha xodimlarni qamrab olishga harakat qilmoqda.

4. Mexanizm. Gender-neytral so'zlarni qo'llash orqali suhbatdoshlar hurmat va tenglikni ta'minlamoqdalar.

5. Kontekst. Ish muhitida gender tengligini ta'minlash uchun zamonaviy yondashuv qo'llanilmoqda.

Pragmatik tahlil:

1. Pragmatik maqsad. Suhbatdoshlar barcha jins vakillarini hurmat qilish va kamsitmaslikka intilmoqdalar.
2. Madaniy kontekst. Zamonaviy nemis jamiyatida gender tengligi masalasi dolzarb bo'lib, bu ish muhitida ham aks etmoqda.
3. Ijtimoiy me'yorlar. Gender-neytral tildan foydalanish orqali ijtimoiy adolat va tenglik tamoyillariga rioya qilinmoqda.
4. Strategiyaning kontekstdagi o'rni. Gender-neytral so'zlarni qo'llash orqali suhbatdoshlar o'zaro hurmat va tushunishni namoyish etmoqdalar.
5. Samaradorligi. Bu yondashuv hamkasblar orasida tenglik hissini uyg'otadi va ish muhitini yanada inklyuziv qiladi.

Sintezlangan tahlil:

1. Siyosiy boadablik taktikasi qo'llanilgan ushbu dialogda suhbat ishtirokchilarining asosiy kommunikativ maqsadi ish jarayonidagi yangiliklarni muhokama qilish bo'lsa, pragmatik maqsad esa gender-neytral tildan foydalanish orqali inklyuziv muhitni yaratishdir. Ikkala kommunikantning ham gender-neytral atamalardan foydalanishi ularning kommunikativ va pragmatik maqsadlarini birlashtiradi va siyosiy boadablik taktikasining qo'llanilishi ko'p sonli funksiyalardan biri sanalgan tenglik va hurmat muhitini yaratish maqsadini yuzaga chiqaradi.

2. Hamkasblar o'rtasidagi rasmiy-do'stona muloqot turiga mansub bo'lgan ushbu misolda gender-neytral atamalar ikki tomon uchun ham tushunarli va qabul qilinarli ekanligi namoyon bo'ldi. Siyosiy boadablik taktikasining ish muhitida qo'llanilishi suhbat ishtirokchilarining kasbiy etikaga rioya qilayotganligini ko'rsatadi va keyingi muloqotlarda ham shu uslubni davom ettirishga rag'batlantiradi.

3. Ikki modelning samaradorlik metrikasi shunda ko'rinadiki, har ikki suhbatdosh ham gender-neytral tilni qo'llashga tayyor ekanliklarini namoyish etmoqdalar. Bu esa ish muhitida tenglik va hurmat tamoyillariga rioya qilinishini ta'minlaydi.

4. Kontekst va ijtimoiy me'yorlarning kommunikatsiyaga ta'sirini tahlil qilar ekanmiz, siyosiy boadablik taktikasini qo'llashda ularning o'rni muhim ekanligining guvohi bo'ldik. Zamonaviy nemis jamiyatida gender tengligi masalasining dolzarbligi ish muhitidagi muloqotda ham o'z aksini topmoqda.

5. Ushbu kontekst va ssenariyda siyosiy boadablik taktikasining qo'llanilishi samaradorligi aniqlandi va kasbiy muhitda keng qo'llanishi mumkinligi namuna sifatida xizmat qiladi. Tahlilimiz asosida shuni aytish joizki, ushbu dialogda lisoniy kooperatsiyaga erishilgan va uning mukammallik darajasi ta'minlangan. Bunga esa aynan har ikki suhbatdosh tomonidan qo'llanilgan gender-neytral til va uning ijobiy qabul qilinishi sabab bo'ldi.

Misol-2. Diskriminatsion terminlardan qochish.

- Maria: *Hast du gehört, dass die Straße Mohrenstraße umbenannt wurde?*
- Lucas: *Ja, sie heißt jetzt Glinkastraße. Ich finde es gut, dass wir endlich solche diskriminierenden Begriffe aus unserem Alltag entfernen.* [<https://www.br.de/extra/respekt/political-correctness-diskriminierung-rassismus-100.html>]

Kommunikativ tahlil:

1. Maqsad. Suhbatdoshlar jamiyatdagi o'zgarishlarni, xususan kamsituvchi atamalarning yo'qotilishini muhokama qilmoqdalar.

2. Aloqa turi. Do'stona suhbat, unda ijtimoiy masalalar ochiq muhokama qilinmoqda.

3. Baho. Lukas ushbu o'zgarishni ijobiy baholamoqda, bu orqali u kamsitishga qarshi ekanligini namoyish etmoqda.

4. Mexanizm. Eski nomni yangisiga almashtirish orqali jamiyatdagi munosabatlarda o'zgarishi ko'rsatilmoqda.

5. Kontekst. Zamonaviy Germaniyada tarixiy nomlarni qayta ko'rib chiqish jarayoni kechmoqda.

Pragmatik tahlil:

1. Pragmatik maqsad. Suhbatdoshlar jamiyatda inklyuzivlikni oshirish va kamsitishni kamaytirishga intilmoqdalar.

2. Madaniy kontekst. Nemis jamiyati o'z tarixini qayta ko'rib chiqish va hozirgi zamon qadriyatlariga moslashtirish jarayonida.

3. Ijtimoiy me'yorlar. Kamsituvchi atamalarni yo'q qilish orqali ijtimoiy adolat va tenglik tamoyillariga rioya qilinmoqda.

4. Strategiyaning kontekstdagi o'rni. Lukasning ijobiy bahosi orqali ushbu o'zgarishlarning ahamiyati ta'kidlanmoqda.

5. Samaradorligi. Bu kabi o'zgarishlar jamiyatda tenglik va hurmat muhitini yaratishga yordam beradi.

Sintezlangan tahlil:

1. Ushbu dialogda suhbat ishtirokchilarining asosiy kommunikativ maqsadi jamiyatdagi o'zgarishlarni muhokama qilish bo'lsa, pragmatik maqsad esa kamsituvchi atamalarning yo'qotilishini qo'llab-quvvatlashdir. Ikkala kommunikantning ham bu o'zgarishga ijobiy munosabati ularning kommunikativ va pragmatik maqsadlarini birlashtiradi va siyosiy boadablik taktikasining qo'llanilishi kamsitishga qarshi kurash maqsadini yuzaga chiqaradi.

2. Do'stona suhbat turiga mansub bo'lgan ushbu misolda diskriminatsion terminlarni almashtirish g'oyasi ikki tomon uchun ham tushunarli va qabul qilinarli ekanligi namoyon bo'ldi. Siyosiy boadablik taktikasining ijtimoiy masalalarni muhokama qilishda qo'llanilishi suhbat ishtirokchilarining zamonaviy qadriyatlarga mos kelishini ko'rsatadi.

3. Ikki modelning samaradorlik metrikasi shunda ko'rinadiki, har ikki suhbatdosh ham kamsituvchi atamalarni yo'q qilish g'oyasini qo'llab-quvvatlashga tayyor ekanliklarini namoyish etmoqdalar. Bu esa jamiyatda tenglik va hurmat muhitini yaratishga hissa qo'shadi.

4. Kontekst va ijtimoiy me'yorlarning kommunikatsiyaga ta'sirini tahlil qilar ekanmiz, siyosiy boadablik taktikasini qo'llashda ularning o'rni muhim ekanligining guvohi bo'ldik. Zamonaviy nemis jamiyatining o'z tarixini qayta ko'rib chiqish jarayoni kundalik muloqotda ham o'z aksini topmoqda.

5. Siyosiy boadablik taktikasining qo'llanilishi samaradorligi aniqlandi va ijtimoiy masalalarni muhokama qilishda keng qo'llanishi mumkinligi namuna sifatida

xizmat qiladi. Tahlilimiz asosida shuni aytish joizki, ushbu dialogda lisoniy kooperatsiyaga erishilgan va uning mukammallik darajasi ta'minlangan. Bunga esa aynan har ikki suhbatdosh tomonidan namoyish etilgan ijtimoiy o'zgarishlarga ijobiy munosabat sabab bo'ldi.

Misol-3. Ta'limda inklyuziv til.

- *Lena: Hast du die neue Richtlinie der Universität gesehen?*
- *Mark: Ja, sie verwenden jetzt überall die Gender-Doppelpunkt-Schreibweise, wie in Studenten.*
- *Lena: Das ist ein guter Schritt in Richtung Inklusion.* [<https://www.br.de/extra/respekt/political-correctness-diskriminierung-rassismus-100.html>]

Kommunikativ tahlil:

1. Maqsad. Universitetdagi yangi qoidalarni muhokama qilish va ularning ahamiyatini ta'kidlash.
2. Aloqa turi. Hamkasblar yoki talabalar o'rtasidagi norasmiy suhbat.
3. Baho. Lena ushbu o'zgarishni "yaxshi qadam" deb baholab, ijobiy munosabatini bildirmoqda.
4. Mexanizm. Gender-Doppelpunkt yozuv uslubini qo'llash orqali inklyuzivlik ta'minlanmoqda.
5. Kontekst. Ta'lim muassasalarida inklyuziv tilni joriy etish jarayoni kechmoqda.

Pragmatik tahlil:

1. Pragmatik maqsad. Suhbatdoshlar ta'limda barcha uchun teng imkoniyatlar yaratilishini qo'llab-quvvatlamodalar.
2. Madaniy kontekst. Zmonaviy nemis jamiyatida ta'lim sohasida inklyuzivlik muhim ahamiyat kasb etmoqda.
3. Ijtimoiy me'yorlar. Inklyuziv tilni qo'llash orqali ta'limda tenglik va adolat tamoyillariga rioya qilinmoqda.
4. Strategiyaning kontekstdagi o'rni. Lenaning ijobiy bahosi orqali ushbu o'zgarishlarning muhimligi ta'kidlanmoqda.
5. Samaradorligi. Bu kabi o'zgarishlar ta'lim muhitida barcha uchun teng imkoniyatlar yaratishga yordam beradi.

Sintezlangan tahlil:

1. Suhbat ishtirokchilarining asosiy kommunikativ maqsadi universitetdagi yangi qoidalarni muhokama qilish bo'lsa, pragmatik maqsad esa inklyuziv tilning ahamiyatini ta'kidlashdir. Ikkala kommunikantning ham bu o'zgarishga ijobiy munosabati ularning kommunikativ va pragmatik maqsadlarini birlashtiradi va siyosiy boadablik taktikasining qo'llanilishi ta'limda inklyuzivlikni oshirish maqsadini yuzaga chiqaradi.

2. Hamkasblar yoki talabalar o'rtasidagi norasmiy suhbat turiga mansub bo'lgan ushbu misolda inklyuziv tilni joriy etish g'oyasi ikki tomon uchun ham tushunarli va qabul qilinarli ekanligi namoyon bo'ldi. Siyosiy boadablik taktikasining ta'lim sohasida qo'llanilishi suhbat ishtirokchilarining zamonaviy pedagogik yondashuvlarga mos kelishini ko'rsatadi.

3. Ikki modelning samaradorlik metrikasi shunda ko‘rinadiki, har ikki suhbatdosh ham inklyuziv tilni joriy etish g‘oyasini qo‘llab-quvvatlashga tayyor ekanliklarini namoyish etmoqdalar. Bu esa ta‘lim muhitida tenglik va hurmat tamoyillariga rioya qilinishini ta‘minlaydi.

4. Kontekst va ijtimoiy me‘yorlarning kommunikatsiyaga ta‘sirini tahlil qilar ekanmiz, siyosiy boadablik taktikasini qo‘llashda ularning o‘rni muhim ekanligining guvohi bo‘ldik. Zamonaviy nemis jamiyatida ta‘lim sohasida inklyuzivlikning muhimligi kundalik muloqotda ham o‘z aksini topmoqda.

5. Tahlilimiz asosida shuni aytish joizki, ushbu dialogda lisoniy kooperatsiyaga erishilgan va uning mukammallik darajasi ta‘minlangan. Bunga esa aynan har ikki suhbatdosh tomonidan namoyish etilgan inklyuziv tilga ijobiy munosabat sabab bo‘ldi.

Misol-4. Kasbiy titullarni o‘zgarishi.

- Sabina: *Wer ist für die Reinigung des Büros zuständig?*
- Yens: *Das macht unsere Raumpflegerin. Sie ist wirklich gründlich.*
- Sabina: *Ja, sie leistet großartige Arbeit.*

[<https://www.br.de/extra/respekt/> political-correctness-diskriminierung-rassismus-100.html]

Kommunikativ tahlil:

1. Maqsad. Ish joyidagi vazifalar va xodimlar haqida ma‘lumot almashish.
2. Aloqa turi. Hamkasblar o‘rtasidagi qisqa, amaliy suhbat.
3. Baho. Sabina xodimning ishini “ajoyib” deb baholab, hurmat bildirmoqda.
4. Mexanizm. “Raumpflegerin” (xona parvarish qiluvchi ayol) atamasini qo‘llash orqali kasbga nisbatan hurmat ifodalanmoqda.
5. Kontekst. Zamonaviy ish muhitida barcha kasblarga nisbatan hurmat muhitini yaratish.

Pragmatik tahlil:

1. Pragmatik maqsad. Suhbatdoshlar barcha kasb egalariga nisbatan hurmat va qadrlashni namoyish etmoqdalar.
2. Madaniy kontekst. Nemis jamiyatida har qanday mehnatni qadrlash va hurmat qilish an‘anasi mavjud.
3. Ijtimoiy me‘yorlar. Barcha kasblarga nisbatan teng munosabatda bo‘lish orqali ijtimoiy adolat tamoyillariga rioya qilinmoqda.
4. Strategiyasining kontekstdagi o‘rni. Sabinaning ijobiy bahosi orqali xodimning mehnati qadrlanayotgani ko‘rsatilmoqda.
5. Samaradorligi. Bunday yondashuv ish muhitida o‘zaro hurmat va qadrlash munosabatlarini shakllantiradi.

Sintezlangan tahlil:

1. Siyosiy boadablik taktikasi qo‘llanilgan ushbu dialogda suhbat ishtirokchilarining asosiy kommunikativ maqsadi ish joyidagi vazifalar va xodimlar haqida ma‘lumot almashish bo‘lsa, pragmatik maqsad esa barcha kasb egalariga nisbatan hurmat va qadrlashni namoyish etishdir. Ikkala kommunikantning ham “Raumpflegerin” atamasini qo‘llashi va xodimning ishini ijobiy baholashi ularning kommunikativ va

pragmatik maqsadlarini birlashtiradi va siyosiy boadablik taktikasining qo'llanilishi ish muhitida o'zaro hurmat munosabatlarini shakllantirish maqsadini yuzaga chiqaradi.

2. Suhbat turiga mansub bo'lgan ushbu misolda hurmatli kasbiy titullarni qo'llash g'oyasi ikki tomon uchun ham tushunarli va qabul qilinarli ekanligi namoyon bo'ldi. Siyosiy boadablik taktikasining ish muhitida qo'llanilishi suhbat ishtirokchilarining kasbiy etikaga rioya qilayotganligini ko'rsatadi.

3. Ikki modelning samaradorlik metrikasi shunda ko'rinadiki, har ikki suhbatdosh ham hurmatli kasbiy titullarni qo'llashga va xodimning ishini ijobiy baholashga tayyor ekanliklarini namoyish etmoqdalar. Bu esa ish muhitida barcha kasblarga nisbatan teng munosabatda bo'lish tamoyillariga rioya qilinishini ta'minlaydi.

4. Nemis jamiyatida har qanday mehnatni qadrlash va hurmat qilish an'anasi kundalik ish muhitidagi muloqotda ham o'z aksini topmoqda.

5. Siyosiy boadablik taktikasining qo'llanilishi samaradorligi aniqlandi va kasbiy muhitdagi muloqotlarda keng qo'llanishi mumkinligi namuna sifatida xizmat qiladi. Tahlilimiz asosida shuni aytish joizki, ushbu dialogda lisoniy kooperatsiyaga erishilgan va uning mukammallik darajasi ta'minlangan. Bunga esa aynan har ikki suhbatdosh tomonidan qo'llanilgan hurmatli kasbiy titul va xodimning mehnatiga berilgan ijobiy baho sabab bo'ldi. Natijada, ish muhitida o'zaro hurmat va qadrlash munosabatlari shakllanishiga zamin yaratildi.

Misol-5. **Barcha gender indentichnost larni inobatga olib gapirish.**

– Karin: *Weißt du, ob wir noch neue Praktikanten einstellen?*

– Thomas: *Ja, ich glaube, wir suchen noch Praktikantinnen für das kommende Semester. Hast du jemanden im Kopf?*

– Karin: *Ja, ich kenne jemanden, der daran interessiert sein könnte.* [<https://www.br.de/extra/respekt/political-correctness-diskriminierung-rassismus-100.html>]

Kommunikativ tahlil:

1. Maqsad. Ish joyida yangi xodimlar yo'llash masalasini muhokama qilish.

2. Aloqa turi. Hamkasblar o'rtasidagi qisqa, amaliy suhbat.

3. Baho. Tomas "Praktikantinnen" atamasini qo'llab, barcha jins vakillariga nisbatan ochiqlik va hurmatni namoyish etmoqda.

4. Mexanizm. Gender yulduzchasi (*) ishlatish orqali barcha gender identifikatsiyalarni qamrab olish.

5. Kontekst. Zamonaviy ish muhitida gender tengligi va inklyuzivlikni ta'minlash.

Pragmatik tahlil:

1. Pragmatik maqsad. Suhbatdoshlar barcha gender vakillariga teng imkoniyatlar yaratilishini qo'llab-quvvatlamodalar.

2. Madaniy kontekst. Nemis jamiyatida gender tengligi va xilma-xillikni hurmat qilish qadriyatlari muhim o'rin tutadi.

3. Ijtimoiy me'yorlar. Barcha gender identifikatsiyalarni inobatga olish orqali ijtimoiy adolat va tenglik tamoyillariga rioya qilinmoqda.

4. Strategiyaning kontekstdagi o'rni. Tomasning inklyuziv tilni qo'llashi orqali

ijobiy va ochiq ish muhiti yaratilmoqda.

5. Samaradorligi. Bu yondashuv ish joyida xilma-xillikni qo'llab-quvvatlaydi va barcha uchun teng imkoniyatlar yaratadi.

Sintezlangan tahlil:

1. Ushbu dialogda suhbat ishtirokchilarining asosiy kommunikativ maqsadi ish joyida yangi xodimlar yollash masalasini muhokama qilish bo'lsa, pragmatik maqsad esa barcha gender vakillariga teng imkoniyatlar yaratilishini qo'llab-quvvatlashdir. Tomasning "Praktikantinnen" atamasini qo'llashi va Karinning bu yondashuvni qabul qilishi ularning kommunikativ va pragmatik maqsadlarini birlashtiradi va siyosiy boadablik taktikasining qo'llanilishi ish muhitida xilma-xillikni qo'llab-quvvatlash maqsadini yuzaga chiqaradi.

2. Hamkasblar o'rtasidagi qisqa, amaliy suhbat turiga mansub bo'lgan ushbu misolda barcha gender identifikatsiyalarni inobatga olib gapirish g'oyasi ikki tomon uchun ham tushunarli va qabul qilinarli ekanligi namoyon bo'ldi. Siyosiy boadablik taktikasining ish muhitida qo'llanilishi suhbat ishtirokchilarining zamonaviy qadriyatlarga mos kelishini va inklyuziv muhitni yaratishga intilayotganini ko'rsatadi.

3. Ikki modelning samaradorlik metrikasi shunda ko'rinadiki, har ikki suhbatdosh ham inklyuziv tilni qo'llashga va barcha gender vakillariga teng imkoniyatlar yaratilishini qo'llab-quvvatlashga tayyor ekanliklarini namoyish etmoqdalar. Bu esa ish muhitida gender tengligi va xilma-xillikni hurmat qilish tamoyillariga rioya qilinishini ta'minlaydi.

4. Kontekst va ijtimoiy me'yorlarning kommunikatsiyaga ta'sirini tahlil qilar ekanmiz, siyosiy boadablik taktikasini qo'llashda ularning o'rni muhim ekanligining guvohi bo'ldik. Nemis jamiyatida gender tengligi va xilma-xillikni hurmat qilish qadriyatlari muhim o'rin tutishi kundalik ish muhitidagi muloqotda ham o'z aksini topmoqda.

5. Ushbu kontekst va ssenariyda siyosiy boadablik taktikasining qo'llanilishi samaradorligi aniqlandi va kasbiy muhitdagi muloqotlarda keng qo'llanishi mumkinligi namuna sifatida xizmat qiladi. Tahlilimiz asosida shuni aytish joizki, ushbu dialogda lisoniy kooperatsiyaga erishilgan va uning mukammallik darajasi ta'minlangan. Bunga esa aynan Tomas tomonidan qo'llanilgan inklyuziv til va Karinning bu yondashuvni qabul qilishi sabab bo'ldi. Natijada, ish joyida xilma-xillikni qo'llab-quvvatlaydigan va barcha uchun teng imkoniyatlar yaratadigan muhit shakllanishiga zamin yaratildi.

Umuman olganda, barcha misollarda siyosiy boadablik taktikasining turli ko'rinishlari namoyon bo'lib, zamonaviy nemis jamiyatida inklyuzivlik, tenglik va hurmat qadriyatlarining naqadar muhim ekanligini ko'rsatadi. Har bir misolda suhbatdoshlar o'rtasida lisoniy kooperatsiyaga erishilgan bo'lib, bu siyosiy boadablik taktikasining samaradorligini tasdiqlaydi.

2. Siyosiy boadablik taktikasi.

Misol-1.

U.: Qayerdan bilasiz aka, balki boshqa maqsadda kelgandirman.

O.: Boshqa maqsadda? Yana qanaqa maqsad bo'lishi mumkin, a? A bu nodon

bola har kuni bir qiliq chiqarmasa ko'ngli joyiga tushmaydi-ku. Yo kim bilandir urushib keladi. Yo kimningdir tomiga tosh otadi. Yo qaysidir bir bezori bollarga qo'shilib kimningdir tazirini berib kelmasa ko'ngli joyiga tushmaydi-ku bu bola.

U.: Ha bu o'zingiz ham xar kuni bitta ishkalni kutib o'tiribsiz shekilli, Shokir aka.

O.: Ishonasizmi, muallim, eshik tirq etsa yuragim shuvullaydi. Agar kirganizda e'tibor bergan bo'lsiz, o' anavi darvozaning oldiga bir kaltak qo'yib qo'yganman. Kechayam shunaqqa kaltakladim shu bolani, lekin ming afsus, kaltak yegani bilan bola o'ziga kelmas ekanda, yaxshi bo'lmas ekan.

U.: Shokir aka, otasi bo'lsangiz ham, bolangizni yaxshi bilmas ekansiz. Raufjon siz aytgandek quloqsiz bolalardan emas.

O.: Qaniydi shunaqa bo'lsa, qaniydi..

U.: Aka, tug'ri endi bolangiz sal sho'xroq bo'lishi mumkin, lekin juda ham zexinli, aqilli biror narsani o'qisa birdan eslab qoladigan qobiliyati bor.

O.: Kechirasizu, muallim, bu bizni ustimizdan kulib, masxara qilishga kema-dizmi?

U.: Aka, nima men masxara qiladigan odamga o'xshayabmanmi?

O.: Yo'q, o'xshamisizu, lekin ishonasizmi shu yoshga kirguncha bolani na mahallako'yda, na qo'ni qo'shniidan, na bir maktabdagi ustozlardan bir og'iz yaxshi gap eshitmaganman. Ishonasizmi shu gapimga.

U.: Aka, o'zilar bolani shunday qilib qo'ygansizlar, yomon, yomon deganidan keyin yomon bo'laveradida. Aslida unaqamas, yaxshi bola. [https://www.youtube.com/watch?app=desktop&v=NKQxtfJ-3qI&list=PLxCbOhpRgDjL1zBsQoOwVjOCJOG_d_nWq&index=14]

Kommunikativ tahlil:

1. Maqsad. Ushbu suhbatda o'qituvchining asosiy maqsadi Raufjon haqida ijobiy fikrlarni yetkazish va otasining fikrini o'zgartirishdir. Otaning maqsadi esa o'z o'g'li haqidagi salbiy tasavvurlarini tasdiqlashdir.

2. Aloqa turi. Bu dialog savol-javob shaklida kechmoqda. O'qituvchi Raufjon haqida ijobiy fikrlarni bildirsa, otasi ularga shubha bilan qaraydi va qarshi savollar beradi.

3. Baho. O'qituvchi Raufjonga ijobiy baho bermoqda (zexinli, aqilli), otasi esa salbiy baho bermoqda (har kuni bir qiliq chiqarmasa ko'ngli joyiga tushmaydi).

4. Mexanizm. O'qituvchi tolerantlik strategiyasini qo'llab, siyosiy boadablik taktikasidan foydalanmoqda. U Raufjonning ijobiy tomonlarini ta'kidlash orqali otasining fikrini o'zgartirishga harakat qilmoqda.

5. Kontekst. Suhbat maishiy sharoitda, ehtimol Raufjonning uyida yoki maktabda kechmoqda. Kontekst Raufjonning xulq-atvori va unga nisbatan munosabat atrofida qurilgan.

Pragmatik tahlil:

1. Pragmatik maqsad. O'qituvchining pragmatik maqsadi otaning o'g'liga bo'lgan munosabatini o'zgartirish, uning ijobiy tomonlarini ko'ra bilishga undashdir.

2. Madaniy kontekst. Suhbat o'zbek madaniyati kontekstida kechmoqda, bu

yerda ota-ona va o'qituvchi orasidagi munosabatlar, shuningdek bolaga nisbatan munosabat aks etgan.

3. Ijtimoiy me'yorlar. O'qituvchi siyosiy boadablik taktikasini qo'llab, ijtimoiy me'yorlarga rioya qilmoqda. U otaning fikrlarini to'g'ridan to'g'ri rad etmay, balki yumshoq tarzda o'z nuqtayi nazarini bildirmoqda.

4. Strategiyaning kontekstdagi o'rni. Tolerantlik strategiyasi va siyosiy boadablik taktikasi ushbu kontekstda juda muhim rol o'ynamoqda: ular orqali o'qituvchi ziddiyatli vaziyatni yumshatishga va otaning ishonchini qozonishga harakat qilmoqda.

5. Samaradorligi. Strategiya va taktikaning samaradorligi otaning oxirgi jumlasida ko'rinadi: *Yo'q, o'xshamisizu, lekin ishonasizmi... Bu otaning o'qituvchiga nisbatan ishonchi ortganini ko'rsatadi.*

Sintezlangan tahlil:

1. O'qituvchining kommunikativ va pragmatik maqsadlari mos kelmoqda – u Raufjon haqidagi ijobiy fikrlarni yetkazish orqali otaning munosabatini o'zgartirishga intilmoqda. Siyosiy boadablik taktikasi bu yerda yumshatish funksiyasini bajarmoqda.

2. Savol-javob muloqot turida tolerantlik strategiyasi va siyosiy boadablik taktikasi muhim rol o'ynamoqda. Ular o'qituvchiga otaning qarshi savollariga bosiqlik bilan javob berish va o'z fikrini samarali yetkazish imkonini bermoqda.

3. Ikki model – kommunikativ va pragmatik tahlil – samaradorligini o'lchash mezoni sifatida otaning oxirgi javobini olish mumkin. U o'qituvchining fikrlarini to'liq qabul qilmasa-da, uni eshitishga tayyor ekanligini bildirmoqda.

4. Kontekst va ijtimoiy me'yorlar o'qituvchining tolerantlik strategiyasi va siyosiy boadablik taktikasini qo'llashiga ta'sir ko'rsatmoqda. O'zbek madaniyatida kattalarga hurmat va bolaning tarbiyasi muhim ahamiyatga ega bo'lgani uchun, o'qituvchi o'z fikrini ehtiyotkorlik bilan yetkazmoqda.

5. Ushbu kontekst va ssenariyda tolerantlik strategiyasi va siyosiy boadablik taktikasining qo'llanilishi samarali bo'lmoqda. O'qituvchi ziddiyatli vaziyatni yumshatishga va otaning ishonchini qozonishga erishmoqda, bu esa kelajakda Raufjonga nisbatan munosabatning o'zgarishiga olib kelishi mumkin.

XULOSA

Madaniyatlararo muloqotda hamkorlik (kooperatsiya) kategoriyasi muloqot samaradorligini ta'minlovchi, til egalarining kommunikativ xulq-atvori, madaniy qadriyatlari va ijtimoiy me'yorlarini aks ettiruvchi pragmatik hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Nemis va o'zbek tillarida kooperatsiya tamoyillarining voqelanishi chog'ishtirma tahlili shuni ko'rsatadiki, har ikki tilda kooperatsiyani ta'minlovchi strategiya va taktikalarning umumiy va o'ziga xos jihatlari mavjud bo'lib, ular tegishli lingvomadaniyatlarning o'ziga xos xususiyatlari, milliy mentaliteti va kommunikativ an'analariga bog'liq ravishda namoyon bo'ladi. Shu sababli, har bir lingvomadaniyatda tolerantlik strategiyasining shakllanishi va qo'llanilishi turlicha bo'lsa ham, ularning umumiy maqsadi muloqotni samarali va nizosiz olib borishdan iborat.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, ikki tilda ham siyosiy boadablik (polit-

korrektlik) taktikasi keng qo'llaniladi, ammo ularning namoyon bo'lish shakllari farqlanadi. Nemis tilida gender-neytral so'zlarni ishlatish, diskriminatsion terminlarni qo'llashdan qochish, ta'limda inklyuziv tilni qo'llash kabi tamoyillar amaliyotga keng joriy etilgan. Xususan, rasmiy hujjatlar, ommaviy axborot vositalari va ilmiy adabiyotlarda siyosiy boadablik standartlariga rioya qilish majburiy hisoblanadi. Nemis tilida siyosiy boadablik nafaqat inson huquqlarini hurmat qilish, balki muloqotning neytral va hurmatli bo'lishini ta'minlash vositasi sifatida ham namoyon bo'ladi.

O'zbek tilida esa, siyosiy boadablik keng qamrovli tamoyil sifatida namoyon bo'lishiga qaramay, asosan og'zaki nutq madaniyatida va rasmiy muhitda qo'llaniladi. O'zbek madaniyatida hurmat va odob asosiy ijtimoiy qadriyatlar hisoblanganligi sababli, boshqa kishini haqoratlashdan qochish, salbiy fikrlarni yumshoq shaklda ifodalash va o'zaro tushunmovchiliklarning oldini olish muloqotning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu jarayonda an'anaviy e'tibor beriladigan odob-axloq qoidalari ham muhim rol o'ynaydi. Bundan tashqari, O'zbekistonda rasmiy nutqda siyosiy boadablik ko'proq davlat boshqaruvi, ommaviy axborot vositalari va ta'lim tizimida kuzatiladi.

Shuni ta'kidlash joizki, tolerantlik strategiyalari, xususan, siyosiy boadablikning qo'llanilishi jamiyatning umumiy rivojlanish darajasi, global jarayonlarga integratsiyasi va xalqaro munosabatlardagi ishtirokiga bog'liq ravishda o'zgarib boradi. Zamonaviy tendensiyalar shuni ko'rsatadiki, madaniyatlararo muloqotda siyosiy boadablik va tolerantlik strategiyalarining ahamiyati ortib bormoqda. Ayniqsa, global kommunikatsiya vositalari va internet texnologiyalari rivojlanishi natijasida turli lingvomadaniyatlarga mansub insonlar o'rtasida bevosita muloqot qilish imkoniyatlari oshdi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, siyosiy boadablikning ijobiy ta'siri nafaqat lingvistik muloqotda, balki ijtimoiy hamkorlik, ishbilarmonlik munosabatlari va diplomatiyada ham sezilarli darajada namoyon bo'ladi. Shunday ekan, kelajakda ham ushbu tamoyillarni chuqurroq o'rganish va ularning yangi formatlarini ishlab chiqish dolzarb bo'lib qoladi. Ushbu tadqiqot natijalari lingvistlar, diplomatlar, siyosatshunoslar hamda madaniyatlararo kommunikatsiya sohasida faoliyat yurituvchi mutaxassislar uchun muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo'lishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Agarkova O.A. Kommunikativnie strategii i taktiki komplimentarnix viskazivaniy // *Filologicheskiye nauki v Rossii i za rubezhom: Materiali I Mejdunar. nauch. konf.* – Sankt-Peterburg: Renome, 2012. – S. 95-97.
2. Anoxina V.S. Strategii i taktiki kommunikativnogo povedeniya v maloy sotsialnoy gruppe (seme) // *Nauka. Innovatsii. Teknologii.* 2008. – № 3. – S 64-71.
3. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – М.: Советская энциклопедия, 1966. – 607 с.
4. Bozorov O.O. O'zbek tilida gapning kommunikativ (aktual) tuzilishi: Filol. fanl. nomz. ...dis. – Farg'ona, 2004. –146 b.
5. Flaksman A.A. Hemetskiy yazik kak otrajeniye mentalnosti yego nositeley: Avtoref. dis. ... kand. filol. nauk. – Nijniy Novgorod, 2005. – 16 с.
6. Guzikova M.O. Osnovi teorii mejkulturnoy kommunikatsii. – M.: Izdatelstvo Yurayt,

2022. – 121 s.
7. Isaakidu K.V. Pragmalingvisticheskiy aspekt nemetskoyazichnogo ritoricheskogo diskursa: Dis. ... kand. filol. nauk. – M.: 2003. – 172 s.
 8. Issers O.S. Kommunikativnie strategii i taktiki russkoy rechi. M. Lenand. 2017. 308 s.
 9. Karasik V.I. Yazikovaya matritsa kulturi. – M.: Gnozis, 2013. –280 s.
 10. Кузнецова Е.А. Конфронтация и кооперация в речевом поведении Владимира Познера (на материале авторского ток-шоу). – Екатеринбург, 2017.– 183 с.
 11. Ланских А.В. Речевое поведение участников реалити-шоу: коммуникативные стратегии и тактики: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Екатеринбург, 2008. – 22 с.
 12. Ларина Т.В. Категория вежливости в аспекте межкультурной коммуникации: Автореф. дис. ... докт. филол. наук. – Москва, 2003. –36 с.
 13. Наместникова И.В. Межкультурная коммуникация как социальный феномен: Автореф. дис. ... докт. филос. наук. – Москва, 2003. – 56 с.
 14. O'zbek tilining izohli lug'ati. 2 tomli. / Z.M. Ma'rufov tahr. ost. – M.: Russkiy yazik, 1981. – T. 2. – 495 b.
 15. Permyakova T.M. Modelirovaniye i tipologiya diskursa mejkulturnoy kommunikatsii: Avtoref. dis. ... dokt. filol. nauk. – Perm, 2009. – 38 s.
 16. Ruscha-o'zbekcha lug'at. Ikki tomli. – Toshkent: O'zbek sovet ensiklopediyasi, 1983. – 457 b.
 17. Sadoxin A.P. Mejkulturnaya kommunikatsiya. – M.: Alfa-M; INFRA-M, 2004. – 286 s.
 18. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. – Jizzax: Sangzor, 2006. – 91 b.
 19. Shemyakina A.V. Strategii personalizatsii v institutsionalnom diskurse (na materiale angliyskix i russkix performativnix viskazivaniy): Dis. ... kand. filol. nauk. – Volgograd 2004. – 195 s.
 20. Suray V.N. Mejkulturnaya kommunikatsiya nemsev i russkix v Sibiri (kones XIX-nachalo XX vv.): Avtoref. dis. ... kand. kulturologii. – Ulan-Ude, 2011. – 22 s.
 21. Tashkinova O. Prinsip koopiratsii v svyazi s interpretiruyemosti teksta: Dis. ... kand. filol. nauk: – Orel, 2003. – 132 с.
 22. С. Г. Тер-Минасова язык и межкультурная коммуникация // Вестник культурологии. 2002. №2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/s-g-ter-minasova-yazyk-i-mezhkulturnaya-kommunikatsiya> (дата обращения: 23.12.2025).
 23. Tyutyunova O.N. Kommunikativnie strategii i taktiki sudebnogo diskursa (na materiale nemetskix i russkix televizionnix peredach): Dis. ... kand. filol. nauk. – Volgograd 2008. – 224 s.
 24. Ubaydullayev Sh.N. Kasb-xunar kolleji o'quvchilariga madaniyatlararo muloqotni o'rgatish: Ped. fanl. nomz. ... dis. – Toshkent, 2009. – 160 b.
 25. 169. Воробец Л.В. Проблема политкорректности в аспекте межкультурной коммуникации // Вестник Костромского государственного университета. 2012. – Вып. 18 (2). – С. 57-59.
 26. Xalupo O.I. Lingvokulturnie aspekti vzaimodeystviya subyektov natsionalnix kommunikativnix prostranstv: Avtoref. dis. ... kand. filol. nauk. – Ufa, 2016. – 44 s.
 27. Yusupov U.K. Problemi sopostavitelnoy lingvistiki. – Tashkent: Fan, 1980. – 135 s.
 28. Chunxia Zhang. A Study on the Application of the Cooperative Principle in Business English Letters. 2017/01/01. Advances in Computer Science Research, volume 59. 7th International Conference on Education, Management, Computer and Medicine (EMCM 2016) Online resource: <https://www.atlantispress.com/proceedings/emcm-16/25870599>
 29. Grein M. Interkulturelle Kompetenz für DaF-Lehrende–Dialogisches Handlungsspiel und Multikollektivität. Kompetenzen in DaF/DaZ – Berlin: Frank & Timme, 2019. – S. 125-145.
 30. Hering M. Deutsch als Fremdsprache. Eine Einführung. – VS Verlag, Wiesbaden, 2005. – 269 p.
 31. Knapp K. Angewandte Linguistik.– A.Francke Verlag Tübingen und Basel, 2007. – P. 644.

32. Ladegaard H.J., Jenks C. Language and Intercultural Communication in the Workplace: Critical Approaches to Theory and Practice. – London: Routledge, 2015. – 12 p.
33. Lulu P. Pragmatic differences between cooperative principle and politeness principle in Chinese and English commentators // utterances international journal of English language and linguistics research // vol.7, № 1, pp. 33-46, January 2019. – P. 45.
34. Lumsden D. Kinds of Conversational Cooperation // Journal of Pragmatics. 2008. – P. 1-24.
35. Meyer K. Interkulturelle Pragmatik: Aufforderungen, Entschuldigungen und Beschwerden: Dissertation. – Hamburg, 2007. – 309 p.
36. <https://www.br.de/extra/respekt/political-correctness-diskriminierung-rassismus-100.html>
37. <https://www.youtube.com/watch?v=mvioZkZrfQQ>
38. <https://www.youtube.com/watch?v=VN7IVetPI8I>

REFERENCES

1. Agarkova O.A. Communicative strategies and tactics of complementary communication // Philological sciences in Russia and abroad: Materials from International scientific conference. – Sankt-Peterburg: Renome, 2012. – P. 95-97.
2. Anoxina V.S. Strategies and tactics of communicative behavior in a small social group (family) // Science. Innovations. Technologies. 2008. – № 3. – P. 64-71.
3. Axmanova O.S. Dictionary of linguistic terms. – M.: Sovetskaya ensiklopediya, 1966. – 607 b.
4. Bozorov O.O. Communicative (actual) structure of speech in the Uzbek language: Philol. fanl. nomz. ...diss. – Fergana, 2004. –146 p.
5. Flaksman A.A. The German language as a reflection of its mentality: Author's note. diss. ... candidate of philological sciences. – Nizhniy Novgorod, 2005. – 16 p.
6. Guzikova M.O. Fundamentals of the theory of intercultural communication. – M.: Izdatelstvo Yurayt, 2022. – 121 p.
7. Isaakidu K.V. Pragmalingvistic aspect of the German rhetorical curriculum: Diss. ... candidate of philological sciences. – M.: 2003. – 172 p.
8. Issers O.S. Communicative strategies and tactics of Russian speech. M. Lenand. 2017. 308 s.
9. Karasik V.I. Language matrix of culture. – M.: Gnozis, 2013. –280 s.
10. Kuznetsova Ye.A. Cooperation and cooperation in the speech behavior of Vladimir Pozner (based on the author's paper). Magistrskaya rabota. Yekaterinburg, 2017. – 29 s.
11. Lansik A.V. Speech behavior of real-life students: communication strategies and tactics: Author's note. diss. ... candidate of philological science. – Yekaterinburg, 2008. – 22 s.
12. Larina T.V. Category of importance in the aspect of international cultural communication: Author's note. dis. ... doctoral thesis. – Moscow, 2003. –36 p.
13. Namestnikova I.V. Intercultural communication as a social phenomenon: Abstract of a PhD thesis in Philosophy. – Moscow, 2003. – 56 p.
14. Explanatory dictionary of the Uzbek language. 2 volumes. / Z.M. Ma'rufov ed. – M.: Russkiy yazik, 1981. – T. 2. – 495 p.
15. Permyakova T.M. Modeling and typology of intercultural communication discourse: Abstract of a PhD thesis in Philology. – Perm, 2009. – 38 p.
16. Russian-Uzbek dictionary. Two volumes. – Tashkent: Uzbek Soviet Encyclopedia, 1983. – 457 p.
17. Sadokhin A.P. Intercultural communication. – M.: Alpha-M; INFRA-M, 2004. – 286 p.
18. Safarov Sh. Cognitive linguistics. – Jizzakh: Sangzor, 2006. – 91 p.
19. Shemyakina A.V. Strategies for personalization in an institutional curriculum (based on English and Russian performance studies): Diss. ... Cand. Philological Science. – Volgograd 2004. – 195 p.
20. Suray V.N. Intercultural communication of German and Russian languages in Siberia (cons of the 19th - early 20th centuries): Author's note. Diss. ... Cand. Cultural Science. – Ulan-

- Ude, 2011. – 22 p.
21. Tashkinova O. Principles of communication based on text interpretation: Diss. ... Cand. Philological Science: Orel, 2003. – 132 p.
 22. Ter-Minasova S.G. Language and intercultural communication. – M.: Slovo / Slovo, 2000. – 146 p.
 23. Tyutyunova O.N. Communicative strategies and tactics of educational programs (based on German and Russian television broadcasts): Diss. ... Cand. phil. science. – Volgograd 2008. – 224 p.
 24. Ubaydullayev Sh.N. Teaching intercultural communication to students of vocational colleges: Ped. fanl. nomz. ... dis. – Tashkent, 2009. – 160 p.
 25. Vorobets L.V. The problem of political correctness in the aspect of intercultural communication // Bulletin of Kostroma State University. 2012. - Issue. 18 (2). - P. 57-59.
 26. Khalupo O.I. Linguocultural aspects of interaction of subjects of national communicative spaces: Abstract of PhD thesis. - Ufa, 2016. - 44 p.
 27. Yusupov U.K. Problems of comparative linguistics. – Tashkent: Fan, 1980. – 135 p.
 28. Chunxia Zhang. A Study on the Application of the Cooperative Principle in Business English Letters. 2017/01/01. Advances in Computer Science Research, volume 59. 7th International Conference on Education, Management, Computer and Medicine (EMCM 2016) Online resource: <https://www.atlantis-press.com/proceedings/emcm-16/25870599>
 29. Grein M. Intercultural competence for German as a foreign language teacher – Dialogic action play and multi-collectivity. Competencies in German as a foreign language/German as a second language – Berlin: Frank & Timme, 2019. – pp. 125-145.
 30. Hering M. German as a foreign language. An introduction. – VS Verlag, Wiesbaden, 2005. – 269 p.
 31. Knapp K. Applied linguistics. – A.Francke Verlag Tübingen and Basel, 2007. – P. 644.
 32. Ladegaard H.J., Jenks C. Language and Intercultural Communication in the Workplace: Critical Approaches to Theory and Practice. – London: Routledge, 2015. – 12 p.
 33. Lulu P. Pragmatic differences between cooperative principle and politeness principle in Chinese and English commentators // utterances international journal of English language and linguistics research // vol.7, № 1, pp. 33-46, January 2019. – P. 45.
 34. Lumsden D. Kinds of Conversational Cooperation // Journal of Pragmatics. 2008. – P. 1-24.
 35. Meyer K. Intercultural Pragmatics: Requests, Apologies and Complaints: Dissertation. – Hamburg, 2007. – 309 p.
 36. <https://www.br.de/extra/respekt/political-correctness-diskriminierung-rassismus-100.html>
 37. <https://www.youtube.com/watch?v=mvioZkZrfQQ>.
 38. <https://www.youtube.com/watch?v=VN7lVEtPl8I>.